



IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

№5 (2)



ISSN: 2992-8982 <https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz/>

2026



IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

Bosh muharrir:
Sharipov Kongiratbay Avezimbetovich

*Elektron nashr. 2026-yil, may.
2-qism*

Bosh muharrir o'rinbosari:
Karimov Norboy G'aniyevich

Muharrir:
Qurbonov Sherzod Ismatillayevich

Tahrir hay'ati:

Salimov Oqil Umrzoqovich, O'zbekiston Fanlar akademiyasi akademigi
Abduraxmanov Kalandar Xodjayevich, O'zbekiston Fanlar akademiyasi akademigi
Sharipov Kongiratbay Avezimbetovich, texnika fanlari doktori (DSc), professor
Rae Kvon Chung, Janubiy Koreya, TDIU faxriy professori, "Nobel" mukofoti laureati
Osman Mesten, Turkiya parlamenti a'zosi, Turkiya – O'zbekiston do'stlik jamiyati rahbari
Axmedov Durbek Kudratillayevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Axmedov Sayfullo Normatovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Abduraxmanova Gulnora Kalandarovna, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Kalonov Muxiddin Baxritdinovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Siddiqova Sadoqat G'afforovna, pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Xudoyqulov Sadirdin Karimovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Maxmudov Nosir, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Yuldashev Mutallib Ibragimovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Samadov Asqarjon Nishonovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, professor
Slizovskiy Dimitriy Yegorovich, texnika fanlari doktori (DSc), professor
Mustafakulov Sherzod Igamberdiyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Axmedov Ikrom Akramovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Eshtayev Alisher Abdug'aniyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Xajiyev Baxtiyor Dushaboyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Hakimov Nazar Hakimovich, falsafa fanlari doktori (DSc), professor
Musayeva Shoirazimovna, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), professor
Ali Konak (Ali Ko'nak), iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor (Turkiya)
Cham Tat Huei, falsafa fanlari doktori (PhD), professor (Malayziya)
Foziljonov Ibrohimjon Sotvoldix'ja o'g'li, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dots.
Faxridinov Zafarjon Faxridin o'g'li, O'zb. Res. Bosh prokuraturasi HIJQKD boshqarma boshlig'i
Utayev Uktam Choriyevich, Anijon viloyati prokurorining o'rinbosari
Ochilov Farkhod, O'zb. Res. Bosh prokuraturasi IJQK Departamentining Namangan viloyati boshqarmasi boshlig'i
Buzrukxonov Sarvarxon Munavvarxonovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent
Axmedov Javohir Jamolovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Toxirov Jaloliddin Ochil o'g'li, texnika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), katta o'qituvchi
Bobobekov Ergash Abdumalikovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), v.b. dots.
Djudi Smetana, pedagogika fanlari nomzodi, dotsent (AQSH)
Krissi Lyuis, pedagogika fanlari nomzodi, dotsent (AQSH)
Glazova Marina Viktorovna, Iqtisodiyot fanlari doktori (Moskva)
Nosirova Nargiza Jamoliddin qizi, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Sevil Piriyeva Karaman, falsafa fanlari doktori (PhD) (Turkiya)
Mirzaliyev Sanjar Makhamatjon o'g'li, TDIU ITI departamenti rahbari
Ochilov Bobur Baxtiyor o'g'li, TDIU katta o'qituvchisi
Golisheva Yelena Vyacheslavovna, Iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent.
Abdukarimova Dinara Rustamxonovna, bank-moliya akademiyasi professori, DSc., professor.
Ikramov Murod Akramovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Nazarova Ra'no Rustamovna, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor



IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

Editorial board:

Salimov Okil Umrzokovich, Academician of the Academy of Sciences of Uzbekistan
Abdurakhmanov Kalandar Khodjayevich, Academician of the Academy of Sciences of Uzbekistan
Sharipov Kongiratbay Avezimbetovich, Doctor of Technical Sciences (DSc), Professor
Rae Kwon Chung, South Korea, Honorary Professor at TSUE, Nobel Prize Laureate
Osman Mesten, Member of the Turkish Parliament, Head of the Turkey–Uzbekistan Friendship Society
Akhmedov Durbek Kudratillayevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Akhmedov Sayfullo Normatovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Abdurakhmanova Gulnora Kalandarovna, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Kalonov Mukhiddin Bakhridinovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Siddikova Sadokat Gafforovna, Doctor of Philosophy (PhD) in Pedagogical Sciences
Khudoykulov Sadirdin Karimovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Makhmudov Nosir, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Yuldashev Mutallib Ibragimovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Samadov Askarjon Nishonovich, Candidate of Economic Sciences, Professor
Slizovskiy Dmitriy Yegorovich, Doctor of Technical Sciences (DSc), Professor
Mustafakulov Sherzod Igamberdiyevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Akhmedov Ikrom Akramovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Eshtayev Alisher Abduganiyevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Khajiyev Bakhtiyor Dushaboyevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Khakimov Nazar Khakimovich, Doctor of Philosophy (DSc), Professor
Musayeva Shoira Azimovna, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Professor
Ali Konak, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor (Turkey)
Cham Tat Huei, Doctor of Philosophy (PhD), Professor (Malaysia)
Foziljonov Ibrokhimjon Sotvoldikhoja ugli, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Associate Professor
Fakhriddinov Zafarjon Fakhriddin ogli, Head of the DCEC under the Prosecutor General's Office of the Rep. of Uzb.
Utayev Uktam Choriyevich, Deputy Prosecutor of Anijan Region
Ochilov Farkhod, Head of the Namangan Regional Department of the Department of Internal Affairs of Rep. of Uzb.
Buzrukkhonov Sarvarkhon Munavvarkhonovich, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor
Akhmedov Javokhir Jamolovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences
Tokhirov Jaloliddin Ochil ugli, Doctor of Philosophy (PhD) in Technical Sciences, Senior Lecturer
Bobobekov Ergash Abdumalikovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Acting Associate Professor
Judi Smetana, Candidate of Pedagogical Sciences, Associate Professor (USA)
Chrissy Lewis, Candidate of Pedagogical Sciences, Associate Professor (USA)
Glazova Marina Victorovna, Doctor of Sciences in Economics (Moscow)
Nosirova Nargiza Jamoliddin kizi, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Associate Professor
Sevil Piriyeva Karaman, Doctor of Philosophy (PhD) (Turkey)
Mirzaliyev Sanjar Makhamatjon ugli, Head of the Department of Scientific Research and Innovations, TSUE
Ochilov Bobur Bakhtiyor ugli, Senior lecturer at TSUI
Golisheva Yelena Vyacheslavovna, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor.
Abdukarimova Dinara Rustamkhanovna, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Ikramov Murod Akramovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Nazarova Ra'no Rustamovna, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor

Ekspertlar kengashi:

Berkinov Bazarbay, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Po'latov Baxtiyor Alimovich, texnika fanlari doktori (DSc), professor
Aliyev Bekdavlat Aliyevich, falsafa fanlari doktori (DSc), professor
Isakov Janabay Yakubbayevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Rustamov Ilhomiddin, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent
Hakimov Ziyodulla Ahmadovich, iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent
Kamilova Iroda Xusniddinovna, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
G'afurov Doniyor Orifovich, pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Fayziyev Oybek Raximovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Tuxtabayev Jamshid Sharafetdinovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Xamidova Faridaxon Abdulkarim qizi, iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent
Yaxshiboyeva Laylo Abdisattorovna, katta o'qituvchi
Babayeva Zuhra Yuldashevna, mustaqil tadqiqotchi
Komilova Nilufar Karshiboyevna, Geografiya fanlari doktori, professori
Umirzoqov Ja'sur Artiqboy o'g'li, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), dotsent
Zebo Kuldasheva, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), dotsent

Board of Experts:

Berkinov Bazarbay, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Pulatov Bakhtiyor Alimovich, Doctor of Technical Sciences (DSc), Professor
Aliyev Bekdavlat Aliyevich, Doctor of Philosophy (DSc), Professor
Isakov Janabay Yakubbayevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Rustamov Ilhomiddin, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor
Khakimov Ziyodulla Akhmadovich, Doctor of Economic Sciences, Associate Professor
Kamilova Iroda Xusniddinovna, Doctor of Philosophy (PhD) in Economics
Gafurov Doniyor Orifovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Pedagogy
Fayziyev Oybek Rakhimovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Economics, Associate Professor
Tukhtabayev Jamshid Sharafetdinovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Economics, Associate Professor
Khamidova Faridaxon Abdulkarimovna, Doctor of Economic Sciences, Associate Professor
Yakhshiboyeva Laylo Abdisattorovna, Senior Lecturer
Babayeva Zuhra Yuldashevna, Independent Researcher
Komilova Nilufar Karshiboyevna, Doctor of Geographical Sciences, Professor
Umirzokov Jasur Artiqboy ugli, Doctor of Economic Sciences (DSc), Associate Professor
Zebo Kuldasheva, Doctor of Economic Sciences (DSc), Associate Professor

- 08.00.01 Iqtisodiyot nazariyasi
- 08.00.02 Makroiqtisodiyot
- 08.00.03 Sanoat iqtisodiyoti
- 08.00.04 Qishloq xo'jaligi iqtisodiyoti
- 08.00.05 Xizmat ko'rsatish tarmoqlari iqtisodiyoti
- 08.00.06 Ekonometrika va statistika
- 08.00.07 Moliya, pul muomalasi va kredit
- 08.00.08 Buxgalteriya hisobi, iqtisodiy tahlil va audit
- 08.00.09 Jahon iqtisodiyoti
- 08.00.10 Demografiya. Mehnat iqtisodiyoti
- 08.00.11 Marketing
- 08.00.12 Mintaqaviy iqtisodiyot
- 08.00.13 Menejment
- 08.00.14 Iqtisodiyotda axborot tizimlari va texnologiyalari
- 08.00.15 Tadbirkorlik va kichik biznes iqtisodiyoti
- 08.00.16 Raqamli iqtisodiyot va xalqaro raqamli integratsiya
- 08.00.17 Turizm va mehmonxona faoliyati

Muassis: "Ma'rifat-print-media" MChJ

Hamkorlarimiz: Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti, O'zR Tabiat resurslari vazirligi, O'zR Bosh prokuraturasi huzuridagi IJQK departamenti.

Jurnalning ilmiyligi:

“Yashil” iqtisodiyot va taraqqiyot” jurnali

O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasi rayosatining 2023-yil 1-apreldagi 336/3-sonli qarori bilan ro'yxatdan o'tkazilgan.



MUNDARIJA

TIJORAT BANKLARIDA MOLIVAVIY HISOBOTLAR TAHLILINI RIVOJLANTIRISHNING DOLZARB MUAMMOLARI VA ULARNI BARTARAF ETISH YO'NALISHLARI	12
Xudoyberdiyev Ulug'bek Axmad o'g'li	
O'ZBEKISTON KOMPANIYALARIDA DIVIDEND SIYOSATI JOZIBADORLIGINI OSHIRISH	16
Shermuxeimedov Akmal Komiljonovich	
РАЗВИТИЕ МЕХАНИЗМОВ ФИНАНСИРОВАНИЯ МАЛОГО И СРЕДНЕГО БИЗНЕСА В КОММЕРЧЕСКИХ БАНКАХ С ИСПОЛЬЗОВАНИЕМ ФИНТЕХА И ИСКУССТВЕННОГО ИНТЕЛЛЕКТА	21
Салимова Зиёда Рустамжон қизи	
ELEKTR TARMOQLARI KORXONALARIDA YO'QOTISHLAR HISOBI UCHUN ISHCHI HISOBVARAQLARI TIZIMINI ISHLAB CHIQUISH	27
Xojimurodov Zuxriddin Shukurullo o'g'li	
RAQAMLI MUHITDA BANK XIZMATLARINI MASOFADAN KO'RSATISHNI TAKOMILLASHTIRISH	32
Azlarova Aziza Axrorovna	
RAQAMLI TRANSFORMATSIYA SHAROITIDA SOLIQ ORGANLARI FAOLIYATINI SUN'YI INTELLEKT TEXNOLOGIYALARI ASOSIDA BOSHQARISHNI TAKOMILLASHTIRISH YO'NALISHLARI	36
Soyibova Matluba Ahmedboyevna	
O'ZBEKISTONDA RAQAMLI TRANSFORMATSIYA SHAROITIDA TADBIRKORLIK SUBYEKTLARI FAOLIYATINI STRATEGIK BOSHQARISH METODOLOGIYASINI TAKOMILLASHTIRISHNING USTUVOR YO'NALISHLARI	41
M.O. Yo'ldoshova	
NARXLARNI BOSHQARISHNING ZAMONAVIY KONSEPSIYASI SIFATIDA DINAMIK NARX SHAKLLANTIRISH	45
Anvar Deberdiyev	
SOLIQ MA'MURCHILIGINI RAQAMLASHTIRISH VA RIVOJLANTIRISH ORQALI YASHIRIN IQTISODIYOT KO'LAMINI QISQARTIRISH YO'LLARI	49
Mamatkulov Salimjon Raxmonkulovich	
STARTAP EKOTIZIMLARINI RAG'BATLANTIRISHNING SOLIQ MEXANIZMLARINI TAKOMILLASHTIRISH: GLOBAL MUAMMOLAR VA HUDUDIIY IMKONIYATLAR	55
Ishimova Mohinur Absalomovna	
UMUMIY OVQATLANISH TIZIMIDA B2B MARKETINGINI JORII ETISH. (XORAZM VILOYATI MISOLIDA)	61
Zakirova Gulnoza Quدراتovna, Aliyeva Gulnora Ildarovna	
TIBBIYOT TASHKIOTLARIDA NOMOLIVAVIY AKTIVLAR HISOBI AMALIYOTINI TAKOMILLASHTIRISH YO'NALISHLARI	67
Iskanov Xoljigit Nurkosimovich	
RAQAMLI TA'LIM TEXNOLOGIYALARINI RIVOJLANTIRISH MARKAZIDA ICHKI AUDIT TIZIMINI TASHIL ETISH AMALIYOTI	73
Suyunov Yorqin Bekmurodovich, Nazarov Ubaydulla Abdumannapovich	
RAQAMLI IQTISODIYOT SHAROITIDA MONOPOLIYAGA QARSHI SIYOSATNI TAKOMILLASHTIRISH YO'NALISHLARI	79
Yuldashev Akmal Kiyomovich	
TOG'-KON KORXONALARIDA TEXNOLOGIK TIZIM HOLATINI BAHOLASH VA IQTISODIIY SAMARADORLIK ZAXIRALARINI ANIQLASH	83
Abirova Nargizabonu	
YASHIL IQTISODIYOT TAMOYILLARI VA ULARNING MILLIIY RIVOJLANISHI	88
Turayev Abduvohid Kuldashevich	



IQTISODIYOTNING INNOVATSION TARAQQIYOTI SHAROITIDA MEHNAT RESURSLARIDAN SAMARALI FOYDALANISHDAGI XORIJ MAMLAKATLAR TAJRIBASI.....	93
Artiqova O'g'iljon Zafar qizi	
O'ZBEKISTON MILLIY TELERADIOKOMPANIYASI IQTISODIY SAMARADORLIGINI OSHIRISHDA SEMIR MODELIDAN FOYDALANISH IMKONIYATLARI	101
Rustamov Zafar	
QURILISH MATERIALLARI SANOATI KORXONALARIDA ISHLAB CHIQARISH TANNARXINI PASAYTIRISHNING IQTISODIY MEXANIZMLARI	107
Metyakubov Azamat Djumanazarovich	
BUXORO ARK ANSAMBLI TURISTIK SIG'IM IMKONIYATLARINI BAHOLASH	111
Sulaymonova Malika Maxmudovna, Qilichov Muhriddin Husniddin o'g'li	
СОВЕРШЕНСТВОВАНИЕ МЕХАНИЗМОВ ПЛАНИРОВАНИЯ, КОНТРОЛЯ И АНАЛИЗА ДЕНЕЖНЫХ ПОТОКОВ НА МАЛЫХ ПРЕДПРИЯТИЯХ	116
Муродов Шавкатжон Фарходович, Зайналов Ж. Р.	
XALQARO MOLIYA INSTITUTLARI ISHTIROKIDAGI INVESTITSION LOYIHALARNI AMALGA OSHIRISHDA MAVJUD MUAMMOLAR VA ULARNI BARTARAF ETISH YO'LLARI	121
Ochildiyeva Naima Mengziya qizi, Ollokulova Feruza Mansurovna	
TIJORAT BANKLARINING KREDITLASH AMALIYOTIDA SUN'IY INTELLEKT TEXNOLOGIYALARIDAN FOYDALANISHNI TAKOMILLASHTIRISH.....	127
Melibayev Sodir Adilovich	
TIJORAT BANKLARI RENTABELLIGINI TA'MINLASHDA AKTIVLAR VA REGULYATIV KAPITALNING O'RNI	135
Sheraliev Abbos Xolmuminovich	
DIGITAL TRANSFORMATION OF DECISION-MAKING IN THE NATIONAL ELECTRICITY GRID OF UZBEKISTAN	140
Abdumalik A. Djumanov, Mukhlisa M. Gafurova, Tursunmurod R. Sobirov	
VIRTUAL IQTISODIYOTNING SHAKLLANISHI VA RIVOJLANISH MEXANIZMLARI	147
Yuldashev Adhamjon Axadjonovich	
O'ZBEKISTON QIMMATLI QOG'OZLAR BOZORINING RIVOJLANISH HOLATI VA INSTITUTSIONAL TUZILMASI.....	152
Shamsiddinov Ne'matjon Ashurali o'g'li	
ASOSIY VOSITALAR HISOBI VA AUDITINI TAKOMILLASHTIRISH.....	157
To'ychiyeva Dilnoza Farxod qizi	
ELEKTRON TIJORAT BOZORIDA RISKLARNI BAHOLASH MASALALARI	162
Aripov Ulug'bek Bahodirovich	
UY-JOY BOZORINI IPOTEKA KREDITLASH AMALIYOTI ORQALI INTEGRATSIYA QILISH: O'ZBEKISTON SHAROITIDA RIVOJLANISH YO'NALISHLARI	166
A'zamxo'jayeva Nihola Sulaymon qizi	
HUDUDIY INVESTITSIYA TARKIBINING IQTISODIY SAMARADORLIKKA DINAMIK TA'SIRINI EKONOMETRIK MODELLASHTIRISH (SURXONDARYO VILOYATI MISOLIDA)	171
Mirzakulova Risolat Musurmankulovna	
KICHIK BIZNES SUBYEKTLARI FAOLIYATINI KREDITLASH TARTIBINI TAKOMILLASHTIRISH	175
Bo'taev O'tkir Eshboevich	
KICHIK BIZNES VA XUSUSIY TADBIRKORLIKNI MOLIYALASHTIRISHNING INNOVATSION USULLARINI TAKOMILLASHTIRISH.....	181
Umarova Malika Nematjanovna	
РАЗВИТИЕ ИНСТРУМЕНТОВ ЗЕЛЕННОГО ФИНАНСИРОВАНИЯ КАК ФАКТОР СТАНОВЛЕНИЯ ЦИРКУЛЯРНОЙ ЭКОНОМИКИ В УЗБЕКИСТАНЕ.....	187
Рахмонов Джамшид Одил угли	



ПРОБЛЕМЫ УПРАВЛЕНИЯ ЧЕЛОВЕЧЕСКИМИ РЕСУРСАМИ В ОРГАНИЗАЦИЯХ КУЛЬТУРЫ УЗБЕКИСТАНА.....	194
Абдусаламова Фарогат Сунатиллаевна	
BANK XIZMATLARI KO'RSATISH MEZONLARINI ANIQLASH VA ULARNI BAHOLASH.....	200
Avazbek Jo'rayev	
BARQAROR TURIZMNI RIVOJLANTIRISHDA EKOLOGIK OMILLARNING IQTISODIY AHAMIYATI	207
Kuymuratova Matlubaxon Abdimanabovna	
ASALARICHILIK XO'JALIKLARIDA ISHLAB CHIQRISH SAMARADORLIGINI OSHIRISH YO'LLARI	211
Berdimuratov Kuanishbay Genjebaevich	
ОЦЕНКА ЭФФЕКТИВНОСТИ УПРАВЛЕНИЯ СТЕЙКХОЛДЕРАМИ ПРОЕКТОВ И ПРОГРАММ.....	215
Абдулаттоев Абдухакимжон Абдулхамид угли	
О'ZBEKISTON RESPUBLIKASINING "YASHIL" IQTISODIYOTGA O'TISH STRATEGIYASI.....	228
Mohichexra Melikovna Mo'minova	
INKLYUZIV TURIZMNI RIVOJLANTIRISH XUSUSIYATLARI: XALQARO TAJRIBA TAHLILI	233
Dilbar Xasanovna Aslanova, Usmanova Zumrad Islamovna	
TA'LIM TIZIMIDA MARKETING YONDASHUVI VA TAMOYILLARINI QO'LLASHNING NAZARIY ASOSLARI	239
Musayeva Shoira Azimovna, Raxmonova Aziza Tolibovna	
MEHMONXONALAR VA OILAVIY MEHMON UYLARI RIVOJLANISHINING NAZARIY ASOSLARI	245
Boynazarov Ulug'bek Egamberdiyevich	
HUDUDLARNING TURISTIK SALOHİYATIDAN FOYDALANISH ORQALI ICHKI TURIZMNI RIVOJLANTIRISH IMKONIYATLARI.....	250
Daminov Mirvoxiid Isroilovich	
О'ZBEKISTON RESPUBLIKASIDA YASHIL IQTISODIYOT RIVOJLANISHINING BARQAROR IQTISODIY O'SISHGA TA'SIRI: MAKROIQTISODIY VA TARMOQ KO'RSATKICHLARI ASOSIDA TAHLIL	255
Iminoxunov Abdukoxor Abdivaitovich	
OZIQ-OVQAT SANOATI KORXONALARIDA RAQAMLI TRANSFORMATSIYA JARAYONLARINING INNOVATSION SAMARADORLIKKA TA'SIRI	264
Abdunabiyev Sirojiddin G'anijon o'g'li	
ИССЛЕДОВАНИЕ АКТИВНОСТИ И СТАБИЛЬНОСТИ КАТАЛИЗАТОРОВ В ПРОЦЕССЕ ГИДРООЧИСТКИ НЕФТЕПРОДУКТОВ И ИХ РОЛЬ В ОХРАНЕ ОКРУЖАЮЩЕЙ СРЕДЫ.....	271
Тураев Баходир Тиркашевич, Махманов Дониёр Махманович	
SURXONDARYO VILOYATI HUDUDIY TURIZM BOZORINING MARKETING TAMOYILLARI ASOSIDAGI KOMPLEKS TAHLILI	276
Namozov Shahzod Maxmud o'g'li	
INNOVATIVE TRANSFORMATION PROCESSES AND ADVANCED INTERNATIONAL EXPERIENCE IN THE FIELD OF AGRICULTURAL SERVICES.....	282
Djurayeva Dilnoza Davronovna, Boltayeva Shakhnoza Bebudovna	
COMPARISON OF HOSPITAL-BASED AND HOME-BASED REHABILITATION AFTER CERVICAL SPINE SURGERY IN UZBEKISTAN	290
Shokhrukh Ziyavaddinov	
О'ZBEKISTON AKSIYADORLIK JAMIYATLARI MOLIVAVIY KOEFFITSIYENTLARI TAHLILI	299
Norqulov Mirsaid To'lqin o'g'li	
TIJORAT BANKLARIDA RAQOBAT MUHITINING SHAKLLANISHI VA RIVOJLANISH TENDENSIYALARI TAHLILI	306
Turdiyev Izatulla Ollaqulovich	
XALQARO STANDARTLAR ASOSIDA IJARA HISOBI TIZIMINI TAKOMILLASHTIRISH MASALALARI	312
Xoliqulova Yulduz Panji qizi	



XALQARO STANDARTLAR ASOSIDA IJARA HISOBI TIZIMINI TAKOMILLASHTIRISH MASALALARI

Xoliqulova Yulduz Panji qizi

Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti mustaqil izlanuvchisi

Annotatsiya. Mazkur maqolada xalqaro moliyaviy hisobot standartlari asosida ijara hisobi tizimini takomillashtirish masalalari tadqiq etilgan. Xususan, IFRS–16 “Leases” standarti asosida ijara operatsiyalarini buxgalteriya hisobida aks ettirishning nazariy va amaliy jihatlarini tahlil qilingan. Tadqiqot davomida milliy hisob tizimi hamda xalqaro standartlar o‘rtasidagi farqlar o‘rganilib, ijara majburiyatlari va foydalanish huquqi aktivlarini tan olishning moliyaviy natijalarga ta‘siri baholangan. Shuningdek, O‘zbekiston korxonalarida IFRS–16 standartini joriy etish jarayonidagi mavjud muammolar aniqlanib, ularni bartaraf etish bo‘yicha ilmiy-amaliy takliflar ishlab chiqilgan.

Kalit so‘zlar: IFRS–16, ijara hisobi, xalqaro standartlar, foydalanish huquqi aktivi, ijara majburiyati, moliyaviy hisobot, buxgalteriya hisobi.

Abstract. This article examines the issues of improving the lease accounting system based on International Financial Reporting Standards. In particular, the theoretical and practical aspects of recognizing lease transactions in accounting in accordance with IFRS–16 “Leases” are analyzed. The study investigates the differences between the national accounting system and international standards and evaluates the impact of recognizing lease liabilities and right-of-use assets on financial results. Furthermore, the existing problems related to the implementation of IFRS–16 in enterprises of Uzbekistan are identified, and scientific and practical recommendations for eliminating these problems are developed.

Key words: IFRS–16, lease accounting, international standards, right-of-use asset, lease liability, financial reporting, accounting.

Аннотация. В данной статье исследованы вопросы совершенствования системы учета аренды на основе международных стандартов финансовой отчетности. В частности, проанализированы теоретические и практические аспекты отражения арендных операций в бухгалтерском учете в соответствии со стандартом IFRS–16 «Leases». В ходе исследования изучены различия между национальной системой учета и международными стандартами, а также оценено влияние признания арендных обязательств и активов в форме права пользования на финансовые результаты. Кроме того, выявлены существующие проблемы внедрения стандарта IFRS–16 на предприятиях Узбекистана и разработаны научно-практические рекомендации по их устранению.

Ключевые слова: IFRS–16, учет аренды, международные стандарты, актив в форме права пользования, арендное обязательство, финансовая отчетность, бухгалтерский учет.

KIRISH

Globalashuv jarayonlari hamda xalqaro kapital bozorlarining tobora integratsiyalashib borishi korxonalar moliyaviy hisobotlarining ochiqligi, ishonchliligi va xalqaro miqyosda taqqoslanuvchanligini ta‘minlash zaruratini kuchaytirmoqda. Mazkur jarayonda ijara operatsiyalarini buxgalteriya hisobida to‘g‘ri aks ettirish korxonaning moliyaviy barqarorligi, aktivlari hajmi va majburiyatlari to‘g‘risida haqqoniy axborot shakllantirishning muhim omillaridan biri hisoblanadi.

IAS–17 standarti amal qilgan davrda operatsion ijara obyektlarining ko‘pincha balansdan tashqari hisobga olinishi korxonalarining haqiqiy moliyaviy majburiyatlarini to‘liq yoritishga imkon bermas edi. Bu esa investorlar va kreditorlar uchun korxonaning moliyaviy barqarorligi va risk darajasini to‘g‘ri baholashni qiyinlashtirardi. Xalqaro amaliyotda ushbu jarayonlarni yanada shaffof va ishonchli qilish maqsadida IFRS–16 “Leases” standarti joriy etilib, ijara majburiyatlari hamda foydalanish huquqi aktivlarini to‘g‘ridan-to‘g‘ri balansda aks ettirish tartibi yo‘lga qo‘yildi. Mazkur yondashuv korxonalarining moliyaviy hisobotlarini real holatga yaqinlashtirib, manfaatdor tomonlarning xolis qaror qabul qilish imkoniyatlarini kengaytirdi.

Bugungi kunda O‘zbekistonda ham moliyaviy hisobotlarni xalqaro standartlar asosida yuritish va transformatsiya qilish bo‘yicha izchil islohotlar amalga oshirilmoqda. Shu bilan birga, IFRS–16 standartini amaliyotga samarali tatbiq etish jarayonida metodologik yondashuvlarni takomillashtirish, axborot tizimlarini zamonaviy talablar asosida moslashtirish hamda yuqori malakali mutaxassislar salohiyatini rivojlantirish muhim vazifalardan biri bo‘lib qolmoqda.



MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Ijara hisobi va uni xalqaro standartlar asosida yuritish bugungi kunda buxgalteriya hisobi hamda moliyaviy hisobot tizimidagi dolzarb ilmiy yo'nalishlardan biri hisoblanadi. Ayniqsa, IFRS–16 “Leases” standartining joriy etilishi natijasida ijara operatsiyalarini hisobga olish konsepsiyasi tubdan takomillashtirildi. Mazkur standart operatsion ijarani balansdan tashqari hisobga olish amaliyotini qayta ko'rib chiqib, foydalanish huquqi aktivi (Right-of-Use Asset) hamda ijara majburiyatlarini tan olish modelini joriy etdi.

Xalqaro moliyaviy hisobot standartlarini ishlab chiquvchi International Accounting Standards Board tomonidan IFRS–16 standarti 2016–yilda qabul qilingan bo'lib, u 2019–yildan boshlab amaliyotga tatbiq etildi. Ushbu standartning asosiy maqsadi korxonalar moliyaviy hisobotlarining shaffofligi va taqqoslanuvchanligini oshirishdan iborat bo'ldi. IASB ma'lumotlariga ko'ra, IFRS–16 orqali trillionlab dollar miqdoridagi balansdan tashqari majburiyatlarning moliyaviy hisobotlarda aks ettirilishi ta'minlandi.

Ijara hisobi nazariyasi va amaliyotini rivojlantirish bo'yicha ko'plab xorijiy iqtisodchi olimlar ilmiy tadqiqotlar olib borgan. Jumladan, Kieso, Weygandt va Warfield moliyaviy hisobotlarning sifat ko'rsatkichlarini oshirishda IFRS standartlarining o'rni yuqori ekanligini ta'kidlaydilar. Ularning fikricha, ijara operatsiyalarining balansda aks ettirilishi investorlar uchun korxonaning haqiqiy moliyaviy holatini yanada aniq baholash imkonini beradi.

Morales-Dfiaz va Zamora-Ramirez tadqiqotlarida IAS–17 standarti asosidagi operatsion ijara tizimi korxonalarining qarz yuklamasini sun'iy ravishda pasaytirib ko'rsatgani qayd etilgan. Olimlarning fikricha, IFRS–16 ushbu jihatlarni takomillashtirib, moliyaviy hisobotlarda iqtisodiy mazmunning huquqiy shakldan ustunligini ta'minlaydi.

M. Sacarin tomonidan olib borilgan tadqiqotlarda IFRS–16 standartining moliyaviy ko'rsatkichlarga ta'siri batafsil tahlil qilingan. Tadqiqot natijalariga ko'ra, yangi standart qo'llanilishi natijasida korxonalarining aktivlari va majburiyatlari hajmi ortadi, EBITDA ko'rsatkichi yaxshilanadi, shu bilan birga moliyaviy leverage darajasi ham o'zgaradi. Olim IFRS–16 ni moliyaviy hisobotlarning shaffofligini kuchaytiruvchi muhim mexanizm sifatida baholaydi.

A.I. Lopes tomonidan 2025–yilda amalga oshirilgan tadqiqotda IFRS–16 standarti joriy etilgach, moliyaviy hisobotlarning investitsion tahlil uchun ahamiyati oshgani asoslab berilgan. Muallif IAS–17 davrida operatsion ijaraning yetarli darajada aks ettirilmagani moliyaviy nisbatlarning aniqligiga ta'sir qilganini qayd etadi. Tadqiqotda IFRS–16 asosida aktivlar va majburiyatlarni tan olish investorlar uchun yanada ishonchli axborot shakllanishiga xizmat qilishi ko'rsatilgan.

Vihosalmi o'z ilmiy ishida IAS–17 dan IFRS–16 ga o'tish jarayonining korxonalar moliyaviy natijalariga ta'sirini tahlil qilgan. Tadqiqot natijalariga ko'ra, yangi standart korxonalar moliyaviy barqarorligini baholashda sezilarli o'zgarishlarni yuzaga keltiradi. Ayniqsa, uzoq muddatli operatsion ijaradan faol foydalanadigan aviatsiya, logistika va chakana savdo korxonalarida aktivlar hamda qarz ko'rsatkichlarining oshishi kuzatilgan.

Van Wyk tomonidan olib borilgan empirik tadqiqotlarda IFRS–16 standartining moliyaviy nisbatlarga ta'siri statistik usullar asosida baholangan. Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatdiki, IFRS–16 qo'llanilgandan so'ng debt-to-equity va debt-to-assets ko'rsatkichlari sezilarli darajada o'zgartirgan. Ushbu jarayonlar natijasida moliyaviy hisobotlarning shaffofligi va solishtiriluvchanligi yaxshilangani holda, tadqiqotlar aktivlar rentabelligi ko'rsatkichiga ta'sir nisbatan cheklanganligini ko'rsatadi. Bu esa IFRS–16 joriy etilishi asosan balans tuzilmasi va majburiyatlar hajmiga sezilarli ta'sir ko'rsatganini, biroq rentabellik ko'rsatkichlarida keskin o'zgarish yuz bermaganini anglatadi.

Ayrim olimlar IFRS–16 standartining amaliyotdagi murakkab jihatlarga ham alohida e'tibor qaratganlar. Xususan, diskont stavkasini aniqlash, qisqa muddatli ijara shartnomalarini baholash hamda axborot tizimlarini moslashtirish asosiy masalalar sifatida qayd etiladi. Tadqiqotchilar ushbu standartni joriy etish korxonalardan yuqori darajadagi professional tayyorgarlik va zamonaviy raqamli hisob tizimlarini talab qilishini ta'kidlaydilar.

Mahalliy iqtisodchi olimlardan A. Vahobov, B. Xasanov, R. Dusmuratov va boshqa tadqiqotchilar xalqaro standartlarni milliy hisob tizimiga integratsiyalash masalalarini o'rganishgan. Ularning ilmiy ishlarida O'zbekistonda xalqaro moliyaviy hisobot standartlarini joriy etish jarayonida metodik va institutsional jihatlarni yanada rivojlantirish zarurligi qayd etilgan. Ayniqsa, ijara operatsiyalarini milliy standartlar asosida yuritishda iqtisodiy mazmuni to'liq aks ettirish hamda moliyaviy hisobotlarning taqqoslanuvchanligini oshirish muhim ahamiyat kasb etishi ta'kidlangan.

Shuningdek, O'zbekistonda IFRS tizimiga o'tish bo'yicha amalga oshirilayotgan islohotlar ilmiy tadqiqotlarda alohida o'rin egallaydi. Respublikada moliyaviy hisobotlarni xalqaro standartlarga moslashtirish bo'yicha normativ-huquqiy baza bosqichma-bosqich shakllantirilmoqda. Shu bilan birga, IFRS–16 standartini amaliyotga joriy etish bo'yicha metodik yondashuvlarni yanada takomillashtirish zarurati mavjud.

Adabiyotlar tahlili shuni ko'rsatadiki, xalqaro ilmiy tadqiqotlarda IFRS–16 standartining moliyaviy hisobotlar sifatiga ijobiy ta'siri keng yoritilgan. Shu bilan birga, O'zbekiston amaliyotida ijara hisobi tizimini xalqaro standartlar



asosida takomillashtirish, ayniqsa, foydalanish huquqi aktivlari, diskont stavkalari hamda ijara majburiyatlarini baholash mexanizmlarini milliy amaliyotga moslashtirish masalalari qo'shimcha ilmiy izlanishlarni talab etadi. Mazkur holat ushbu yo'nalishda ilmiy tadqiqotlarni yanada rivojlantirish zarurligini ko'rsatadi.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Tadqiqot davomida ilmiy abstraksiya, qiyosiy tahlil, statistik tahlil hamda iqtisodiy-mantiqiy yondashuv usullaridan foydalanildi. IFRS–16 standarti talablari asosida ijara operatsiyalarini buxgalteriya hisobida aks ettirish mexanizmlari milliy amaliyot bilan qiyosiy tahlil qilindi.

Shuningdek, foydalanish huquqi aktivlari hamda ijara majburiyatlarini tan olishning korxonalarining moliyaviy natijalariga ta'siri shartli misollar asosida baholandi. Tadqiqotning axborot bazasini IFRS standartlari, ilmiy maqolalar, O'zbekiston Respublikasining normativ-huquqiy hujjatlari hamda korxonalar moliyaviy hisobotlari tashkil etdi.

TAHLIL VA NATIJALAR

Tahlillar natijasida IFRS–16 standarti asosida ijara operatsiyalarini hisobga olish tizimi moliyaviy hisobotlarning shaffofligini sezilarli darajada oshirishi aniqlandi. Xususan, operatsion ijaraning balansda aks ettirilishi natijasida korxonaning aktivlari va majburiyatlari hajmi oshadi.

Masalan, korxonadan 5 yil muddatga yillik 120 mln so'mlik ijara shartnomasi tuzilgan deb faraz qilinadi. Diskont stavkasi 10 foizni tashkil etganda, ijara majburiyatining joriy qiymati quyidagi formula asosida aniqlanadi:

$$PV = \sum_{t=1}^5 \frac{120}{(1 + 0.10)^t}$$

Natijada foydalanish huquqi aktivi hamda ijara majburiyati taxminan 454 mln so'm miqdorida balansda aks ettiriladi. Bu esa korxonada aktivlari va majburiyatlari hajmining oshishiga olib keladi.

IFRS–16 standartining joriy etilishi quyidagi ijobiy natijalarni ta'minlaydi:

- moliyaviy hisobotlarning haqqoniyligi va shaffofligi oshadi;
- investorlar hamda kreditorlar uchun axborot sifati yaxshilanadi;
- balansdan tashqari majburiyatlar hajmi qisqaradi;
- korxonalarining moliyaviy risklarini real baholash imkoniyatlari kengayadi (1–jadval).

1-jadval. IAS–17 va IFRS–16 standartlarida ijara operatsiyalarini hisobga olishning qiyosiy tavsifi¹.

Taqqoslash mezon	IAS 17 "Ijara"	MHXS 16 "Ijara"
Asosiy yondashuv	Operativ va moliyaviy ijarani ajratish	Iqtisodiy mazmun ustuvorligi
Ijarachi uchun model	Ikki xil model (operativ / moliyaviy)	Yagona model (deyarli barcha ijara balansda)
Aktivni tan olish	Faqat moliyaviy ijarada	Foydalanish huquqi aktivi tan olinadi
Majburiyatni tan olish	Faqat moliyaviy ijarada	Ijara majburiyati doimiy tan olinadi
Operativ ijara	Balansdan tashqarida	Balansda aks ettiriladi
Baholash usuli	Minimal ijara to'lovlari	Diskontlangan ijara to'lovlari
Diskont stavkasi	Cheklangan qo'llaniladi	Majburiy element
Moliyaviy hisobotga ta'siri	Majburiyatlar yashirilishi mumkin	Shaffoflik yuqori
Axborotni ochib berish	Cheklangan	Kengaytirilgan talablar
Investorlar uchun ahamiyati	O'rtacha	Yuqori
Xalqaro taqqoslanish	Cheklangan	To'liq taqqoslanadi
Qo'llash sanasi	1982–2018	2019 yildan

1–jadval ma'lumotlari shuni ko'rsatadiki, IAS–17 va IFRS–16 standartlarida ijara operatsiyalarini hisobga olishga doir yondashuvlar orasida muhim ijobiy farqlar mavjud. IAS–17 standarti uzoq muddatli operatsion

1 Muallif tomonidan adabiyotlar asosida shakllantirilgan.



ijaralar bo'yicha ayrim majburiyatlarning balansda aks etmasligi tufayli korxonaning moliyaviy yuklamasini baholashda cheklovlarga ega bo'lgan bo'lsa, IFRS–16 standarti bu jarayonni yanada shaffof va iqtisodiy mazmuniga mos tarzda tartibga soladi. Mazkur standartda ijara majburiyatlari hamda foydalanish huquqi aktivlarini to'liq balansda aks ettirish talabi joriy qilinib, natijada korxonalar moliyaviy hisobotlarining aniqligi, ishonchligi va taqqoslanuvchanligi sezilarli darajada oshadi. Tahlillar davomida IFRS–16 standartini amaliyotga tatbiq etish jarayonida bir qator tashkiliy va metodik jihatlar mavjudligi aniqlandi (2–jadval).

2-jadval. IFRS–16 standarti asosida ijara operatsiyalarini hisobga olish tizimining moliyaviy hisobotlar shaffofligini ta'minlashdagi asosiy jihatlari

Muammo turi	Mazmuni
Metodik jihatlar	Diskont stavkasini aniqlashdagi murakkabliklar
Axborot tizimi jihatlari	IFRS–16 bo'yicha avtomatlashtirilgan dasturlarni takomillashtirish zarurati
Kadrlar bilan bog'liq jihatlar	Malakali IFRS mutaxassislariga ehtiyojning yuqoriligi
Huquqiy jihatlar	Milliy standartlarni xalqaro standartlarga yanada uyg'unlashtirish zarurati

Aniqlangan muammolarni bartaraf etish hamda ijara hisobini xalqaro standartlar asosida yanada takomillashtirish maqsadida quyidagi ilmiy-amaliy takliflar ishlab chiqildi:

1. Ijara hisobi ma'lumotlarining shaffofligi va ishonchligini oshirish, shuningdek, axborotlarning rahbariyatga o'z vaqtida yetib borishini ta'minlash maqsadida lizing faoliyatini amalga oshiruvchi xo'jalik yurituvchi subyektlar uchun ma'lumotlarni yagona tizim asosida jamlash va nazorat qilish imkonini beruvchi 01–LIH shaklidagi "Lizing va ijara ma'lumotlari aylanma hisobotini" ishlab chiqish taklif etildi.

2. Lizing faoliyatini amalga oshiruvchi xo'jalik yurituvchi subyektlarda lizingga berilayotgan aktivlarning lizing qiymati va foiz stavkalarini aniqlash mexanizmini xalqaro standartlar talablari asosida takomillashtirish, shuningdek, moliyaviy hisobotlarning xalqaro standartlari asosida buxgalteriya hisobini yuritish jarayonini soddalashtirish va tizimlashtirish maqsadida "Lizing hisoblash jadvali"ni ishlab chiqish taklif etildi.

3. Xo'jalik yurituvchi subyektlarning ijara hisobida operatsion ijaraga beriladigan asosiy vositalar bo'yicha ma'lumotlarning aniqligini oshirish hamda ulardan tezkor foydalanish imkoniyatini kengaytirish maqsadida hisob siyosatida har bir asosiy vosita guruhi bo'yicha alohida ijara hisobvaraqlarini ochish taklif qilindi.

4. Xo'jalik yurituvchi subyektlarda ijara hisobini moliyaviy hisobotlarning xalqaro standartlari talablari asosida yuritishni ta'minlash hamda ushbu tizimga o'tish jarayonini yanada soddalashtirish maqsadida 6–sonli BHMS "Ijara hisobi" standartini IFRS–16 "Leases" hamda IAS–40 "Investment Property" standartlari talablari asosida milliy qonunchilikka moslashtirilgan namunaviy shaklini ishlab chiqish va amaliyotga joriy etish taklif etildi.

5. Foydalanish huquqi asosida tan olinadigan aktiv tarkibiga operatsion ijaraga olingan asosiy vositalar bilan bog'liq boshlang'ich xarajatlar, har oylik ijara to'lovlari hamda yakuniy demontaj xarajatlarini kiritish, shuningdek, ushbu aktivlar bo'yicha eskirish hisoblash mexanizmini takomillashtirish maqsadida hisob siyosati va ishchi hisobvaraqlar rejasiga yangi hisobvaraqlarni kiritish taklif qilindi.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatdiki, xalqaro standartlar asosida ijara hisobi tizimini takomillashtirish korxonalar moliyaviy hisobotlarining shaffofligi, ishonchligi va taqqoslanuvchanligini oshirishda muhim ahamiyat kasb etadi. IFRS–16 standarti operatsion ijara majburiyatlarini balansda aks ettirish orqali korxonalarining real moliyaviy holatini yanada aniq va haqqoniy ifodalash imkonini beradi.

Tahlillar natijasida O'zbekiston amaliyotida IFRS–16 standartini samarali joriy etish uchun metodik, institutsional hamda texnologik yo'nalishlarni yanada takomillashtirish zarurligi aniqlandi. Shu bois milliy standartlarni xalqaro standartlarga uyg'unlashtirish, professional kadrlar salohiyatini oshirish hamda raqamli hisob tizimlarini rivojlantirish ustuvor vazifalardan biri hisoblanadi.

Shuningdek, ijara hisobi tizimini xalqaro standartlar asosida takomillashtirish korxonalarining investitsion jozibadorligini oshirish, moliyaviy boshqaruv samaradorligini kuchaytirish va xalqaro kapital bozorlariga integratsiyalashuv jarayonlarini jadallashtirishga xizmat qiladi. Mazkur yo'nalishda olib boriladigan ilmiy-amaliy tadqiqotlar milliy buxgalteriya hisobi tizimini modernizatsiya qilish hamda moliyaviy hisobotlarning xalqaro talablar darajasiga mosligini ta'minlashda muhim ahamiyat kasb etadi.



FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. International Accounting Standards Board (IASB). *IFRS–16 Leases*. — London: IFRS Foundation, 2016.
2. Kieso D.E., Weygandt J.J., Warfield T.D. *Intermediate Accounting: IFRS Edition*. 4th Edition. — Wiley, 2022.
3. Bragg S.M. *Wiley GAAP: Interpretation and Application of Generally Accepted Accounting Principles*. — Wiley, 2023.
4. Epstein B.J., Jermakowicz E.K. *Interpretation and Application of International Financial Reporting Standards*. — Wiley, 2021.
5. Morales-Díaz J., Zamora-Ramírez C. “The Impact of IFRS–16 on Key Financial Ratios: A New Methodological Approach” // *Accounting in Europe*. — 2018. — Vol. 15(1). — Pp. 105–133.
6. Săcărin M. “IFRS–16 Leases – Consequences on the Financial Statements and Financial Indicators” // *Audit Financiar*. — 2017. — Vol. 15(146). — Pp. 114–122.
7. Vihosalmi J. *Transition to IFRS–16 and Its Effects on Financial Statements*. — Aalto University School of Business, Master’s Thesis. — Finland, 2019.
8. Van Wyk H.A., Coetsee D. “The Effect of IFRS–16 on Corporate Lease Accounting and Financial Ratios” // *Cogent Economics & Finance*. — 2025. — Vol. 13(1). — Pp. 1–18.
9. Lopes A.I., Carvalho L.N. “Lease Accounting under IFRS–16 and Its Influence on Financial Reporting Quality” // *Advances in Accounting*. — 2024. — Vol. 64. — P. 100701.
10. Deloitte. *IFRS–16 Leases: Implementation Guide*. — Deloitte IAS Plus, 2023.
11. PwC. *Manual of Accounting – IFRS–16 Leases*. — PricewaterhouseCoopers, 2022.
12. Ernst & Young. *Applying IFRS: A Closer Look at IFRS–16 Leases*. — EY Global, 2021.
13. O‘zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi. *Buxgalteriya hisobi milliy standartlari to‘plami*. — Toshkent, 2022.
14. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020–yil 24–fevraldagi PQ–4611–son “Moliyaviy hisobotlarning xalqaro standartlariga o‘tish bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi Qarori. <https://lex.uz/docs/-4746047>
15. Vahobov A., Ishonqulov N., Ibrohimov A. *Moliyaviy va boshqaruv tahlili*. — T.: “Iqtisod-moliya”, 2013.
16. Xasanov B., Xashimov A. *Boshqaruv hisobi*. — T.: “Cho‘lpon”, 2013.
17. Dusmuratov R.D. *Buxgalteriya hisobi nazariyasi*. — T.: “Fan va texnologiya”, 2013.
18. Shoalimov A.X. va boshqalar. *Iqtisodiy tahlil*. — T.: “Lesson Press”, 2016.
19. IFRS Foundation. *Project Summary and Feedback Statement: IFRS–16 Leases*. — London, 2016.
20. IASB. *Effects Analysis: IFRS–16 Leases*. — London: IFRS Foundation Publications, 2016.



IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

Ingliz tili muharriri: Feruz Hakimov

Musahhih: Zokir ALIBEKOV

Sahifalovchi va dizayner: Oloviddin Sobir o'g'li

2026. № 5 (2)

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelmasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga maqola, reklama, hikoya va boshqa ijodiy materiallar yuborishingiz mumkin. Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.

EI.Pochta: sq143235@gmail.com

Bot: @iqtisodiyot_77

Tel.: 93 718 40 07

Jurnalga istalgan payt quyidagi rekvizitlar orqali obuna bo'lishingiz mumkin. Obuna bo'lgach, @iqtisodiyot_77 telegram sahifamizga to'lov haqidagi ma'lumotni skrinshot yoki foto shaklida jo'natishingizni so'raymiz. Shu asosda har oygi jurnal yangi sonini manzilingizga jo'natamiz.

"Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali 03.11.2022-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №566955 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.

Litsenziya raqami: №046523. PNFL: 30407832680027

Manzilimiz: Toshkent shahar, Mirzo Ulug'bek tumani
Kumushkon ko'chasi, 26-uy.



Jurnal sayti: <https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz>